



TOPONYMS OF UZBEKISTAN AND THE HISTORY OF THEIR STUDY

M. N. Kamolov

PhD

*Jizzakh State Pedagogical Institute
Jizzakh, Uzbekistan*

D. M. Normatov

Master's student

*Jizzakh State Pedagogical Institute
Jizzakh, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Regions of Uzbekistan, To'rtko'l, Mirzachul, Navoi, Gijduvan, Khorezm, Sirdarya, Samarkand, Fergana, Yettisuv, Zakaspy .

Received: 12.12.22

Accepted: 14.12.22

Published: 16.12.22

Abstract: The article discusses the names of the regions located in Uzbekistan and the names of the places left by them in different regions in connection with their specific natural conditions, features of historical development.

O'ZBEKISTON TOPONIMLARI VA ULARNING O'RGANILISH TARIXI

M. N. Kamolov

PhD

*Jizzax davlat pedagogika institute
Jizzax, O'zbekiston*

D. M. Normatov

Magistratura talabasi

*Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti
Jizzax, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston hududi , To'rtko'l, O'zbekiston viloyatlari, Mirzacho'l, Navoiy, G'ijduvon, Xorazm, Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv, Zakaspiy.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda joylashgan viloyatlar va ular hududida qoldirgan joy nomlarining turli hududlardagi o'ziga xos tabiiy sharoiti, tarixiy taraqqiyoti xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq holda nomlangan joy nomlari muhokama etilgan.

ТОПОНИМЫ УЗБЕКИСТАНА И ИСТОРИЯ ИХ ИЗУЧЕНИЯ

М. Н. Камолов*Phd**Джизакский государственный педагогический институт**Джизак, Узбекистан***Д. М. Норматов***студент магистратуры**Джизакский государственный педагогический институт**Джизак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Территория Узбекистана, Турткульская, области, Мирзачульская, Гиждуванская, Сырдарьинская, Ферганская, Семиреченская, Закаспийская.</p>	<p>Узбекская, Навоийская, Хорезмская, Самаркандская.</p>	<p>Аннотация: В статье рассмотрены названия областей Узбекистана и оставленные ими на их территории названия местностей, названных в связи с особенностями их исторического развития и специфическими природными условиями в различных регионах.</p>
---	--	---

KIRISH

Toponimika atamasi yunoncha so'z (topos-joy, onoma-nom) dan olingan bo'lib, morfologiyaning joy nomlari nomlanishini o'rganuvchi fandır. Toponimika fanining rivojlanishiga etnografiya, geografiya, arxeologiya, tarix va tilshunoslik kabi fanlarning hamma sohalarida ishlovchi olimlar o'z bilimlarini qo'shib kelmoqdalar. Toponimikaga oid dastlabki ma'lumotlar Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Pomioniya Melaning "Xorografiya" kabi asarlarida, O'rta Osiyo va O'zbekistondagi joy nomlariga oid ilk yozma ma'lumotlarni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Beruniyning "Qonuni Mas'udiy", "Hindiston", "Saydana", Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ibn Sinoning "Dengiz qirg'oqlari", muallifi noma'lum "Hudud al-olam", keyinchalik Mirzo Ulug'bekning "To'rt usul tarixi", Boburning "Boburnoma" asarlarida uchratish mumkin.

Toponimlarda xalqning buguni va o'tmishi, urf-odatları, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, madaniy jarayonlari o'z aksini topgan hisoblanib shunga ko'ra toponimiya muayyan til lug'at boyligining muhim tarkibiy qismi, o'tmish voqealari darakchisi sanaladi. Bugungi kunda dunyoning siyosiy xaritasida 230 dan ortiq davlatlar bor bo'lib, shunday davlatlar qatorida o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi mazmunan va hududiy barqarorlikka ega. O'zbekiston o'zi yaratgan bebaho obidalari va ma'naviy xazinası bilan sharq va g'arb olamida juda mashhurdir. Hozirgi Markaziy Osiyoda joylashgan davlat O'zbekiston toponimiyasi tarixi, mahalliy axoli tomonidan nomlangan joy nomlariga to'xtalib o'tamiz.

ASOSIY QISM

Keyingi bir asr davomida mamlakatimizning geografik xaritasi tez-tez o'zgarib turdi. 1917-yilda hozirgi O'zbekiston hududi Turkiston generalgubernatorligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasida taqsimlangan edi. 1924-yilda yuz bergan O'rta Osiyoning milliy-hududiy taqsimlanishi natijasida O'zbekiston SSR tashkil topdi.

1924-1929-yillar davomida Tojikiston ASSR uning tarkibida bo'ldi. 1930-yilga qadar respublika poytaxti Samarqand shahrida joylashgan. 1936-yilda uning tarkibiga ilgari RSFSR da bo'lgan Qoraqalpog'iston ASSR kiritildi.

1939-yilda ushbu avtonom respublikaning poytaxti To'rtko'l shahridan Nukusga ko'chirildi. Viloyat bo'linishlari O'zbekistonda 1938-yil yanvaridan boshlab vujudga keldi. Dastlab 5 viloyat tashkil etildi: Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm.

1941-yil martida ular safiga Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943-yil yanvarida Qashqadaryo viloyatlari qo'shildi. 1945-yilda O'zbekistonda 9 viloyat va 1 avtonom respublika mavjud bo'lgan. 1960-yilda Namangan va Qashqadaryo viloyatlari tugatildi.

Bunda Namangan Andijon va Farg'ona viloyatlari o'rtasida taqsimlangan bo'lsa, Qashqadaryo butunlay Surxondaryo viloyatiga qo'shib yuborildi.

1963-yil fevral oyida Mirzacho'lning yangi o'zlashtirilgan yerlarida Sirdaryo viloyati tuzildi. Ushbu mintaqa Samarqand va Toshkent viloyatlari negizida tashkil topgan bo'lib, ma'muriy markazi dastlab Yangiyer, keyinchalik Guliston shahri qilib belgilandi. 1964-yilda Qashqadaryo, 1967-yilda esa Namangan viloyatlari qaytadan tiklandi. 1973-yil oxirida Sirdaryo viloyatidan Jizzax viloyati ajralib chiqdi.

O'zbekistonning eng kenja viloyati bo'lgan Navoiy 1982-yilda Buxoro va Samarqand viloyatlari tumanlari negizida vujudga keldi. SHunday qilib, respublikada viloyatlar soni 12 taga yetdi.

1988-yilda viloyatlar soni yana 10 taga tushib qoldi. Jizzax viloyati Sirdaryo viloyati tarkibiga qo'shib yuborildi. Navoiy viloyati tumanlari Buxoro va Samarqand viloyatlariga bo'lib berildi. Lekin tezda ushbu ma'muriy chegaralar yana o'z qoliga qaytarildi: 1989-yilda Jizzax viloyati, 1992-yilda esa Navoiy viloyati qaytadan tiklandi. Bunday o'zgarishlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muayyan bosqichidagi obektiv zarurat, ba'zan esa masalaga subyektiv yondoshuvlar natijasida ro'y beradi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz ma'muriy jihatdan 14 mintaqaga (Toshkent shahri, 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi) bo'lingan. O'z navbatida ushbu mintaqalarda 120 shahar, 113 shaharcha, 159 qishloq tumanlari, 1464 qishloq fuqarolik kengashlari 11838 qishloq aholi punktlari va 7801 mahalla yig'inlari mavjud. Toshkent shahri tarkibida 11ta shahar tumanlari joylashgan (jadvalga qarang). Mamlakat maydonini ma'muriy-hududiy birliklarga ajratish chog'ida tabiiy sharoit, xo'jalik ixtisoslashuvi, aholining tarixiy shakllangan an'analari,

mintaqaning siyosiy va g'arbiy jihatdan ahamiyati va boshqa juda ko'plab omillar hisobga olinadi. Aholi soni va hudud maydoni - ushbu omillar orasida eng asosiylaridan bo'lib hisoblanadi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bu ko'rsatkichlar bo'yicha alohida mintaqalar orasida tafovutlarning ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik - mintaqaviy siyosatning o'zagini tashkil etadi. Mamlakatimiz ma'muriy-hududiy birliklari orasida aholi soni bo'yicha farq 3,5 martani (Samarqand va Navoiy viloyatlari), hudud maydoni bo'yicha esa 39,7 martani (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon viloyati) tashkil etadi. Ma'muriy-hududiy birliklar soni bo'yicha ham turli mintaqalar o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Jumladan, Toshkent viloyati shaharlar (16 ta) va shaharga (18 ta), Farg'ona viloyati qishloq fuqarolik kengashlari (164 ta) soni bo'yicha eng yuqori o'rinlarni egallasalar, Samarqand viloyati qishloq aholi punktlarining (1935 ta) soniga ko'ra hammadan oldinda turadi.

Bunday tafovutlarni ayrim tumanlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, qishloq fuqarolik kengashlari (20 ta) soni bo'yicha Qashqadaryo viloyati CHiroqchi tumani, qishloq aholi punktlarining (266 ta) soni bo'yicha esa Buxoro viloyati G'ijduvon tumani respublikada eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Mamlakatimizdagi mavjud ma'muriy-hududiy birliklarni yerarxiya tizimiga ko'ra 3 bo'g'inga ajratish mumkin:

- yuqori bo'g'in - Toshkent shahri, 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi;
- o'rta bo'g'in - viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, qishloq va shahar tumanlari;
- quyi bo'g'in - tumanga bo'ysunuvchi shaharlar, shaharga, qishloq fuqarolik kengashlari va mahalla yig'inlari.

Mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishida shaharlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda shaharlar respublikaga bo'ysunuvchi, viloyatga bo'ysunuvchi va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifalariga ajratiladi. SHaharlarning toifalari asosida ularning huquqiy holati belgilanadi, u yerlarda shunga mos keladigan davlat idoralari tashkil etiladi, xalq xo'jaligining turli yo'nalishlari bo'yicha rahbarlikni amalga oshiruvchi tashkilotlar tuzildi.

Har qanday mamlakatning geosiyosiy tizim sifatida shakllanishini uning ma'muriy-hududiy bo'linishi asoslab beradi. Ayni vaqtda, u davlat va ijtimoiy tashkilotlar, moliya, soliq, kabi qator tizimlar faoliyatini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni hududlar doirasida ijobiy tarzda rivojlantirish masalalarini to'g'ri hal etishda ham katta o'rin tutadi.

Hozirgi O'zbekiston hududida turli tarixiy davrlarda ma'muriy-hududiy bo'linish har xil bo'lgan. Masalan, 16-18 asrlarda Xiva xonligi, Buxoro amirligida ularning ma'muriy-hududiy bo'linishi turlicha nomlangan. Xiva xonligining ma'muriy bo'linishi "viloyat" deb atalgan bo'lsa, 18-asrdan boshlab "bekliklar" tushunchasi qo'llanilgan. Eng kichik ma'muriy bo'linish esa "machitqo'm" deb yuritilgan. Dastlab xonlikda 16-viloyat, 2-noiblik, keyinchalik viloyatlar soni 22 taga etgan. Ularni xon tomonidan tayinlangan hokim va noiblar boshqargan.

20-asr boshlariga kelib mamlakatimiz ma'muriy-hududiy bo'linishida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrda O'zbekiston ma'muriy jihatdan Turkiston general-gubernatorligi va Rossiyaga qaram bo'lgan Buxoro amirligi hamda Xiva xonligiga bo'lingan. Turkiston general-gubernatorligida asosiy ma'muriy-hududiy birliklar viloyat (oblast), uezd, volost, uchastka va oqsoqolliklardan iborat bo'lgan. Ushbu siyosiy - geografik hudud Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv, Zakaspiy viloyatlari va Amudaryo bo'limiga ajratilgan. Buxoro amirligi hududi 29 ta viloyatga, viloyatlar esa amloqlarga, amloqlar qishloqlarga ajratilgan.

Buxoro shahri va uning atrofidagi 11 ta tuman (hozirgi Buxoro viloyati) alohida ma'muriy birliklar hisoblangan. Bu davrda Xiva xonligida 20 ta bekklik, 2 ta noiblik va Xiva shahriga bo'lingan. Beklik va noibliklar, o'z navbatida, aminlik va masjid-qavmlardan iborat bo'lgan. Xonlik va amirliklar tugatilganidan so'ng ma'muriy-hududiy bo'linishda ham bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, 1920 yil 8 oktyabrda Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari rasman e'lon qilinadi. SHu yili kuz oyida ma'muriy-xududiy bo'linish o'tkazilib, u viloyatlar, tumanlar, kentlar, amloqlar va qishloqlarga bo'lindi. 1923 yilda Buxoro ma'muriy-hududiy bo'linishga tuzatishlar kiritilib, 8 ta viloyat (Buxoro, Karmana, Nurota, CHorjo'y, Qarshi, SHahrisabz, SHerobod, Karki), 28 ta tuman va SHarqiy Buxoroga aylantirilgan.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hududi 28 ta tumanga ajratilgan, 1924 yilda esa uning tarkibida uch viloyat (Qozoq - Qoraqalpoq, YAngi Urganch, Toshhovuz) va Xiva tumani tashkil etiladi. Ushbu yilda O'rta Osiyoning milliy - hududiy chegaralanishi natijasida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuziladi. Uning tarkibida dastlab 7 ta viloyat (Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm), Konimex avtonom rayoni va Tojikiston ASSR bo'lgan. 7 viloyat o'z navbatida 23 uezd, 240 volostga va 1163 qishloq sovetlariga bo'lingan (Abdurazoqov, 1987,.b.30).

Ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirishning amalga oshirilishi munosabati bilan 1926 yil 29 sentyabrda 1924 yilda tashkil etilgan ma'muriy-hududiy bo'linish tugatilib, ularning o'rniga 10 okrug (Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Andijon, Qo'qon, Xo'jand, Buxoro, O'rta Zarafshon, Samarqand), 1 avtonom respublika (Tojikiston ASSR), 87 tuman va 1746 ta qishloq fuqorolar yig'ini tashkil etilgan.

Biroq, 1930 yilda okruglarga bo'linishlar ham bekor qilinadi va ularning o'rniga 9 shahar, 84 ta tuman, 1696 ta qishloq sho'rosidan iborat bo'lgan ma'muriy bo'linish tashkil etiladi.

Markaz ko'rsatmasi bilan 1929 yilda O'zbekiston tarkibida bo'lgan Tojikiston muxtor respublikasi sobiq SSSR tarkibidagi Ittifoqdosh respublikaga aylantirildi. Respublikamizda ma'muriy-hududiy bo'linish 1937 yilgi Konstitutsiyada rasmiylashtirildi. Bu vaqtga kelib, uning tarkibida bir muxtor respublika, 3 okrug, 109 tuman, 22 shahar, 16 shaharcha va 1392

qishloq sho'rosi bo'lgan. 1938 yil 15 yanvardan boshlab mamlakatimiz hududidagi hozirgi viloyatlar qayta shakllana boshladi. SHu yili Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari tashkil qilinadi. 1941 yilning 6 martida Andijon, Namangan, Surxondaryo, oradan ikki yil o'tib esa Qashqadaryo viloyati ajratiladi.

1957-1961 yillar maboynda sobiq Ittifoqda olib borilgan ma'muriy-hududiy birliklarni yiriklashtirish siyosati natijasida respublika ma'muriy-hududiy birliklarida ham bir qator o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, Namangan viloyati Andijon va Farg'ona viloyatlariga, Qashqadaryo esa Surxondaryo viloyatiga qo'shib yuborildi. SHu bilan birga mavjud 117 ta qishloq tumanlaridan 56 tasi tugatildi (Ro'ziev, A, Abirqulov Q, 2001, b. 10). Biroq, respublika ma'muriy-hududiy bo'linishida amalga oshirilgan islohotlarning xo'jalik-amaliy va ilmiy nuqtai nazardan asoslanmaganligi qisqa muddatda namoyon bo'ldi. O'tkazilgan o'zgarishlarning kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida 1962-1964 yillarda Andijon, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida boshqarish tizimida sanoat va qishloq xo'jalik kengashlari va ularning ijroiya qo'mitalari tashkil qilindi. Davlat organlarining ishlab chiqarish prinsipi bo'yicha bo'linganligi munosabati bilan ushbu viloyatlarda shahar kengashlariga bo'ysunuvchi shahar va shaharchalardan iborat bo'lgan sanoat zonalarini barpo etildi. Lekin shuning natijasida yuqorida sanab o'tilgan mintaqalarda boshqarish tizimining yagonaligi yo'qotilib, faoliyatining samaradorligi sezilarli tarzda pasayib qoldi. Ro'y bergan muammolarni bartaraf etishni ko'zlab, 1964 yil noyabr oyida sanoat va qishloq xo'jalik boshqarish organlari tugatildi va yagona hokimiyat tizimi qayta tiklandi. Respublika hududidagi yangi erlar va tabiiy resurslarning o'zlashtirilish jarayoni uning yangidan ma'muriy-hududiy bo'linishiga birmuncha asos yaratib berdi.

CHunonchi, Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi 1964 yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyatining qayta tiklanishiga, Mirzacho'lning o'zlashtirilishi Sirdaryo viloyatining tashkil topishiga, Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlantirilishi

Namangan viloyatining qayta tiklanishiga, Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi Jizzax viloyatining tashkil bo'lishiga sabab bo'ldi.

Mamlakatimizda kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirish maqsadida 1982 yil 20 aprelda Buxoro va qisman Samarqand viloyati hududlaridan iborat bo'lgan Navoiy viloyati tashkil etilgan. Biroq, u oradan olti yil o'tib, ma'muriy birlik sifatida tugatildi. 1992 yilda qayta viloyat tarzida tiklandi.

XULOSA

Xulosa qilganimizda O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi - bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga qadam qo'ydi.

Hozirgi kunga kelib Toponimika fanini ham o'rganish, geografik joy nomlarini bilish yangi joy nomlari tashkil bo'lishiga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002-yil
2. Ro'ziev. A, Abirqulov Q, 2001, b. 10
3. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. -T.: «O'zbekiston», 2014.
4. Bobur ensiklopediyasi. -T.: "Sharq", 2014.
5. Geografiya va qadriyatlar. //Ilmiy seminar mat-lari. -T.: 2001 .
6. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. -T.: «Fan». 1985. -104 bHasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan "Fan" nashriyoti. 1965-yil
7. "Joy nomlari-xalq tili va ma'naviyatining nodir merosi" ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Navoiy, 1998-yil
8. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, Toshkent, 2005-yil, 7-son
9. Абдимуратов К.А. Топонимика Каракалпакии. АКД. Нукус, 1966.
10. Ahmadaliyev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. -Farg'ona. 2018.
11. Begaliyev N.B. O'zbek etnonimlari tarixidan. - Samarqand,2004.
12. Закиров А.А. Топонимия Джизакской области. АКД. - М.: 1992.
13. Кадырова Ш.М. Микропонимы Ташкента. АКД. -Т.: 1970.
14. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. -T.; 2005.
15. Qorayev S. Toponimika. -T.: "O'zb. faylasuflar jamiyati", 2006.